

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**Shukrullo SULTONOV, Botir SALAYDINOV,
Sarvar BAXODIROV, Dilshod HAKIMOV**

O`quv-uslubiy nashr

Sh. U. Sultonov, B. M. Salaydinov,
S.S. Baxodirov, D.Q. Hakimov

KICHIK FUTBOL

Texnik muharrir:
Musahhih:

**M. Raxmatov
M.Primova**

Terishga 29.07.2016 yilda berildi. Bosishga 27.08.2016 yilda
ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16. Nashr bosma tabog‘i 2,24.
№ 27– бюллетень 100 nusxada. Erkin narxda.

Qarshi davlat universiteti
kichik bosmaxonasida bosildi.
Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy.

KICHIK FUTBOL

o`quv - uslubiy qo‘llanma

Qarshi - 2016 yil

Kichik futbol sport turi jismoniy madaniyat fakultetning 2-bosqich talabalari bilan tanlov fani sifatida o'rganilib kelinadi. Bugungi kunda ushbu sport turiga bo'lgan qiziqish yoshlar o'rtasida juda katta. Oliy o'quv yurtlarida, kasb – hunar kollejlari, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi yoshlar o'rtasida yilning turli fasllarida, turli darajadagi musobaqalar o'tkazilib kelinmoqda.

Jismoniy madaniyat fakultetining talabalari kichik futbol o'yini qoidalaridan o'quv - uslubiy qo'llanma sifatida muntazam foydalanib kasb - hunar kollejlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilan kunning ikkinchi yarmida to'garaklar tashkil qilishlari va musobaqalar o'tkazishlari mumkin.

Kichik futbol mashg'ulotlari, musobaqalari uncha katta mablag' talab qilmaydi, shuningdek, ushbu sport o'yini tekis bo'lgan ochiq maydonlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda tashkil qilinadi va o'tkaziladi.

Mazkur o'quv - uslubiy qo'llanma kichik futbol o'yini qoidalarini o'z ichiga olgan bo'lib, ushbu qoidalar orqali ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mumkin.

Ushbu o'quv - uslubiy qo'llanma jismoniy madaniyat fakulteti talabalari, o'qituvchilar va shu sohaga dahldor uslubchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

F. R.Eshpo'latov - Qarshi davlat universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti
dekani

I. R. Vardiashvili - Qarshi davlat universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası
dotsenti.

Mas'ul muharrir:

Sh. Nuriddinov - Qarshi davlat universiteti
Filologiya fakulteti dekani

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Qarshi davlat universiteti Ilmiy kengashining 2016-yil 23-iyun 11-sonli yig'ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Kichik futbol qoidalar.....	5
I. O'yin uchun ajratilgan maydon o'lchamlari.....	11
I.1. Kichik futbol maydoni o'lchami.....	12
I.2. Kichik futbol maydonidagi chiziqlar.....	12
I.3. Jarima maydoni.....	12
I.4. 6 metrli belgi.....	13
I.5. O'yinchilarni almashtirish joyi.....	13
I.6. Darvoza.....	13
I.7. Maydonning yuza qismi qoplamasi.....	14
II. Kichik futbol to'pi.....	15
III. Kichik futboldagi o'yinchilar soni.....	16
IV. O'yinchilar formasi.....	18
V. Hakam.....	18
VI. Qanot hakami.....	20
VII. O'yinning davomiyligi.....	21
VIII. O'yinning boshlanishi.....	21
IX. To'p o'yinda va o'yindan tashqarida.....	23
X. O'yin natijasi.....	24
XI. O'yinchini o'yin qoidasini buzushi va intizomsizligi....	25
XII. Jarima va erkin to'p.....	27
XIII. Olti metrlik zarba.....	29
XIV. Yon chiziqdan to'pni tepib o'yinga kiritish.....	30
XV. Darvozadan to'pni o'yinga kiritish.....	31
XVI. Burchak to'pi.....	33
Durang hisobi qayd qilingan hollarda g'olibni aniqlash uchun 6 metrlik zarbani amalga oshirish tartibi.....	35
Kichik futbolga doir test savollari.....	37
Shartli o'yin qoidalar.....	43
Foydalanilgan adabiyotlar.....	46

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.Н.Андреев. Играй в мини-футбол. Физкультурная библиотечка школьника. Москва, 1989 год.
2. Мини - футбол. Правила соревнований. Москва, 1991 год.
3. O'zbekiston Respublikasida chop etilayotgan sportga oid gazetalar va jurnallar. Oxirgi besh yillik.

KIRISH

Kichik futbol sport turi bugungi kunga kelib butun dunyo bo'ylab keng rivojlanib bormoqda. Bu o'yin hamma-bop o'yin bo'lib uni tashkil qilib o'tkazish shug'ullanuvchilardan katta shart - sharoit taqozo etmaydi. Bu o'yinni oddiy sport maydonlarida, sport zallarida ham, shuningdek, qishloq sharoitida keng maydonlarda ham tashkil qilish va o'tkazish mumkin. O'z nabatida kichik futbol o'yini zamonaviy futbol o'yini kabi katta kuch talab qilmaydigan, kuchli to'qnashuvlarga ega bo'lmagan o'yin hisoblanadi. Shundayin, o'z navbatida bu sport turi yetarli darajada qiziqarli va jozibali bo'lib, o'yinchilardan yuqori texnik mahoratni, jangovarlik sifatlarini, doimiy tig'iz vaqtlarda zudlik bilan kerakli va to'g'ri bo'lgan qarorni qabul qilishni talab qiladi.

Bizga ma'lum bo'lgan kichik futbol sport turi birinchi bor dastlab Braziliyada 1920-yillarda o'ynala boshlangan.

1958-yili Shvetsiyada bo'lib o'tadigan futbol bo'yicha jahon chempionati mobaynida Avstriya terma jamoasi rahbarlaridan biri Yozef Argauer Braziliya terma jamoasini yopiq sport zalida kichik futbol bilan mashq qilayotganining guvohi bo'lgan. Bu o'yin avstriyaliklarga o'ta yoqib qolgan va ularda katta qiziqish o'yg'otgan. Tez orada mamlakatda o'zlarining bir qator kichik futbol uchrashuvlarini o'tkazganlar. Shundan so'ng bu yangi sport turi yevropaning bir qator mamlakatida, jumladan, Gollandiya, Ispaniya, Italiyada ham keng tarqaldi.

1968-1969-yillarda Gollandiyada birinchi bor mamlakatda kichik – futbol chempionati birinchiligi bo'lib o'tdi. Chempionatda "Sharaga 66" jamoasi g'alaba qozondi.

1970-yil o'rtalariga kelib zalda o'ynaladigan kichik - futbol yangi sport turi sifatida rivojlana boshladi.

1974-yilning 19-iyulida birinchi bor Italiya- Livan terma jamoalari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda Italiya termasi 9:2 hisobida g'alaba qozondi.

FIFA sportning bu turini rivojlantirish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda va qat'iy tartibga solmoqda. Kichik futbol sport turidan vaqti - vaqti bilan xalqaro turnirlarni tashkil qilinishi, yangi - yangi jamoalarni vujudga kelishi Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) ni befarq qoldirmadi. O'z navbatida kichik futbol sport o'yinini tartibga solish chora tadbirlari ko'rildi.

FIFA ning jadal say' harakati va tashabbusi bilan "Besh - besh" kichik futbol bo'yicha uchta turnir tajriba sifatida Vengriya, Ispaniya va Braziliya mamlakatlarida tashkil qilindi va o'tkazildi.

Vengriya poytaxti Budapeshtda 1986-yil birinchi bor prototip – turnir sifatida kichik futboldan jahon chempionati o'tkazildi. 8 ta jamoa ishtirok etgan bu jahon chempionati finalida Vengriya terma jamoasi Niderlandiya terma jamoasi ustidan g'alaba qozondi. Natija shuni ko'rsatdiki, terma jamoalar ishtirokidagi o'yinlar juda ham qiziqarli o'tdi.

Kichik futbol maydoni



Kichik futbol o'yini



Yosh bolalar musobaqasi



Qizlar musobaqasi



KICHIK FUTBOL QOIDALARI

Musobaqalarni o'tkazish uchun FIFA tomonidan ishlab chiqilgan va joriy qilingan bir qator o'yin qoidalarini sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi va endi uni amaliyotga tadbqiq etish mumkin bo'ldi. Bu qoidalaridan kelgusida amaliyotda keng foydalanilmoqda.

Aynan ushbu o'yin qoidalariga asosan 1989-yili Gollandiyada birinchi bor kichik futbol bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi. Bunda Braziliya terma jamoasi g'alaba qozondi. Mazmuni jihatidan kichik futbol o'yin qoidalarini zamonaviy futbol o'yini qoidalarini qisman takrorlasa ham ushbu sport turining mavjud ayrim xususiyatlari uni yangicha tus olishiga olib keldi.

FIFA tarkibiga kiruvchi dunyodagi barcha milliy assosatsiyalar FIFA tomonidan tasdiqlangan o'yin qoidalarini bilan musobaqalarini o'tkazishlari talab qilinadi.

Tajriba-sinov sifatida 2009-2010 yilgi Rossiya chempionatida FIFA bilan kelishilgan holda uchrashuvlar davomiyligi 2-taym, sof 25 daqiqadan o'tkazildi.

Kichik futbol o'yini uchun to'p, katta futboldagi to'pga nisbatan kichik o'lchamda qabul qilingan. Shuningdek, ushbu to'pning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u katta futbol to'piga nisbatan sakrovchanlik qobiliyatiga ega emas. Kichik futbol o'yinidagi taktik harakatlar katta futboldagidan tubdan farq qiladi. O'yin uchun maydonning kichikligi, o'yinchilar sonining kamligi, o'yinda to'qnashuvlar qisman uchrashi, podkat kabi usullarni ta'qiqlanganligi o'yin taktikasini yopiq inshootlarda o'tkaziladigan basketbol, gandbol o'yinlaridagi kabi bo'lishini belgilaydi. Ko'p hollarda jamoa o'yinchilari "birga - bir" o'ynaydi, ya'ni har bir maydon o'yinchisi raqib jamoa o'yinchisining harakatlarini nazorat qiladi. Shuningdek, maydonda o'yinchilarni son jihatdan kamchiligi, ulardan hujumda ishtirok etish bilan birga, darhol

himoyaga qaytishlarini ham talab etadi. Eng so'nggi faktorlardan biri futbolchi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan har qanday sportchi ham kichik futbol o'yini ko'nikmasiga ega bo'lavermaydi. Aniqrog'i hujumchi himoyaga qaytmaydi, raqiblar son jihatdan ortiq ustunlik bilan hujum uyushtiradi, yana bir holat himoyachilar doimo hujumga qatnashishga ulguravermaydilar. Shunga qaramay farazlarimizga qarshi dalillar ham uchra turadi. Masalan, Leningradning "Zenit" jamoasida to'p surgan Aleksey Stepanov futbol bo'yicha sobiq ittifoq chempioni bo'lishi bilan birga Rossiyaning "Dina" jamoasi tarkibida MDH davlatlari chempioni bo'lgan.

Butun dunyodagi kabi Osiyo mamlakatlarida ham kichik futbol o'yiniga bo'lgan qiziqish keyingi yillarda millionlab kishilar orasida keskin suratda ortib bormoqda.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach kichik futboldan yangi – yangi jamoalar tashkil bo'ldi, qator turnirlar o'tkazila boshlandi. Ko'plab rasmiy musobaqalar, milliy chempionat musobaqalari yoshlar o'rtasida katta qiziqish uyg'ota boshladi.

Respublikamizda kichik futbol federatsiyasi mavjud bo'lib, ularda yetuk mutaxassislar, malakali hakamlar, murabbiylar faoliyat ko'rsatib, vaqti - vaqti bilan turli seminarlar o'tkazilmoqda.

Kichik futbol o'yinning keng omma orasida rivojlanishiga haqiqatdan ham o'yinning uncha murakkab bo'lmaganligi, keng bo'lgan sport zallarini qisqa muddatda kichik futbol o'tkazishga oson moslashtirilishi, unga bo'lgan sarf harajatlarni kamligi sabab bo'la oladi. Kichik futbolni tavsifi jihatidan unchalik atletik, qo'pol bo'lmagani uchun nafaqat bolalar, balki o'spirinlar, yoshlar, qizlar, hattoki katta yoshdagilar ham o'ynashlari mumkin. Keyingi yillarda nogironlar o'rtasida ham turli darajadagi musobaqalar bo'lib o'tmoqda.

Kichik futbol o'yini uchun mo'ljallangan maydon to'g'ri to'rtburchak shaklida 25-42 metr uzunlikda, eni 15-25

SHARTLI O'YIN QOIDALARI

I qoida. O'yin uchun ajratilgan maydon o'lchamlari.

I. 1. Kichik futbol maydoni o'lchami.

I. 2. Kichik futbol maydonidagi chiziqlar.

I. 3. Jarima maydoni.

I. 4. 6 metrli belgi.

I. 5. O'yinchilarni almashtirish joyi.

I. 6. Darvoza.

I. 7. Maydonning yuza qismi (qoplamasi).

II qoida. Kichik futbol to'pi.

III qoida. Kichik futboldagi o'yinchilar soni.

IV qoida. O'yinchilar formasi.

V qoida. Hakam.

VI qoida. Qanot hakami.

VII qoida. O'yinning davomiyligi.

VIII qoida. O'yinning boshlanishi.

IX qoida. To'p o'yinda va o'yindan tashqarida.

X qoida. O'yin natijasi.

XI qoida. O'yinchini o'yin qoidasini buzushi va intizomsizligi.

XII qoida. Jarima va erkin to'p.

XIII qoida. Olti metrlik zarba.

XIV qoida. Yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish.

XV qoida. Darvozadan to'pni o'yinga kiritish.

XVI qoida. Burchak to'pi.

Ilovalar:

Durang hisobi qayd qilingan hollarda g'olibni aniqlash uchun 6 metrlik zarbani amalga oshirish tartibi.

Kichik futbolga doir test savollari.

28. O'yin vaqtida to'pni kimning ruxsati bilan almashtirish mumkin?

- A) Sardorlarni
- B) Murabbiylarni
- C) O'yinchilarni
- *D) Hakamni

29. Kichik futbolda jamoa tarkibi necha kishidan iborat bo'ladi?

- A) 7 kishidan
- *B) 8 kishidan
- C) 9 kishidan
- D) 10 kishidan

30. Burchak to'pi bajarilayotgan vaqtda to'pdan raqib o'yinchilari necha metr uzoqlikda bo'lishi kerak?

- A) 3 metr
- B) 4 metr
- *C) 5 metr
- D) 6 metr

31. Darvoza to'ri qanday materialdan tayyorlanadi?

- A) Penka, djut
- B) Djut, neylon
- *C) Penka, djut, neylon
- D) Penka, neylon

32. Maydonning yuza qismi qoplamasi?

- *A) Tekis, silliq, xavfsiz
- B) Tekis, silliq
- C) Silliq, xavfsiz
- D) Tekis, xavfsiz

33. O'yinchilar kiyimi nimalardan iborat?

- A) Futbolka, trusik, getra, oyoq kiyim
- B) Getra, futbolka, trusik
- C) Trusik, getra, oyoq kiyim
- D) Oyoq kiyim, getra, futbolka

metrni tashkil qiladi. Har qanday holatda ham maydonning uzunligi eniga nisbatan katta bo'lishi talab qilinadi.

Maydondagi chiziqlarning qalinligi esa 8 sm ni tashkil qilib, maydonni chegaralab turgan uzun chiziqlar yon chiziqlar, qisqalari esa darvoza chizig'i deb yuritiladi. Maydonning o'rtasida 3 metr radiusli aylana chizib qo'yilgan. Shuningdek, maydonning har ikkala tomonida ham jarima maydoni mavjud.

Darvoza chizig'idan 6 metr masofada jarima zarbasini amalga oshirish belgisi qo'yilgan. Bu yerdan o'yinchilar zarur bo'lganda 6 metrli to'p tepishni amalga oshiradilar.

Zahira o'rindig'iga ko'ndalang ravishda 3 metr uzoqlikda maydonning ichida va tashqarisida 40 sm li to'g'ri chiziq tortiladi. O'yinchilar o'yin davomida aynan shu chiziq oralig'ida almashib maydonga tushadi va shu chiziq oralig'idan maydondan chiqib ketadi.

Darvoza ustuni orasidagi masofa 3 metrni tashkil etadi. Ustunlarning pastki va tepa qismi bir xil kenglikda bo'lib, orqa tomonidan o'yinda to'p kiritilganligini aniqlash uchun to'r osilgan bo'ladi.

Darvozaning to'ri qanday materialdan bo'lishidan qat'iy nazar bir xil qalinlikda bo'lishi talab qilinadi.

Umumiy maydon yuzasining qoplamasi yumshoq, tekis hamda o'yinchilar yiqilganda xavfsiz bo'lishi kerak. Maydonning yuza qismi parket, yoki sun'iy material bilan ham qoplanishi mumkin.

Kichik futbol o'yini to'pi aylana shaklida va sof teridan yoki teri o'rnini bosuvchi materialdan tayyorlangan bo'lishi kerak. To'pning aylanasi 62 - 66 sm, o'yin boshlanishidan oldin uning og'irligi esa 340 - 390 gramm bo'lishi shart. O'yin davomida faqatgina hakamning ruxsati bilangina to'p almashtirilishi mumkin.

Kichik futbol o'yinida ikki jamoa ishtirok etadi. Har bir jamoadan maydonga 5 nafardan o'yinchi, shulardan biri

darvozabon tushadi. Jamoalar o'yinda ishtirok etishi uchun eng kamida 5 nafar jamoa a'zosiga ega bo'lishi kerak, undan kam bo'lsa o'yinga qo'yilmaydi.

Har qanday xalqaro o'yinlarda, shuningdek, milliy chempionlarda ham o'yinchini almashtirishga ruxsat etiladi.

Agar biror jamoadan ko'p miqdorda o'yinchilar chetlashtirilib maydon o'yinchilar o'yinda 2 nafarga teng bo'lib qolganda hakam tomonidan o'yin to'xtatiladi.

O'tkaziladigan har qanday o'yinda ham zahiradagi o'yinchilarning soni 6 nafardan oshmasligi kerak. Shunga qaramay uchrashuv davomida o'yinchilar almashtirish limitlanmagan (chegaralanmagan) bo'ladi. Darvozabonlarni almashtirish faqatgina darvozabondan to'p o'yindan chiqqan paytda amalga oshiriladi. Shu zahoti almashgan o'yinchi zahiradagi o'yinchiga aylanadi va u yana qaysidir o'yinchi-ning o'rniga maydonga tushishi mumkin.

O'yinlarni o'tkazish davomida o'yinchini almashtirish to'p o'yindaligi paytida amalga oshiriladi. O'yinchilar almash-tirishga qo'yiladigan talablar ma'lum qoidalarga buysungan holda bajariladi:

- o'yinchi almashtirilganda o'yindan chiqib ketayotgan futbolchi almashish zonasi deb ataladigan yon chiziq orqali chiqib ketishi kerak;

- o'yindan chiqib ketayotgan futbolchi maydonni tark etmay turib zahira o'yinchisi maydonga tushishi mumkin emas;

- zahiradagi o'yinchi o'yinda ishtirok etayotganligi yoki etmayotganligidan qat'iy nazar uning mas'uliyat maydon o'yinchisiniki singari bo'ladi;

- zahiradagi o'yinchi maydonga tushib ulgurganidan so'nggina zahiradagi o'yinchining almashtirilishi nihoyasiga yetgan hisoblanadi. Endi shu paytdan boshlab u maydon o'yinchisiga, uning o'rniga zahira o'rindig'idan joy olgan o'yinchi esa zahira o'yinchisiga aylanadi.

- *C) 6 metr

- D) 3 metr

23. Darvoza to'ri yuqori qismining eni necha santimetr bo'ladi?

- A) 60 sm

- *B) 80 sm

- C) 70 sm

- D) 50 sm

24. Darvoza to'ri pastki qismining eni necha santimetr bo'ladi?

- A) 80 sm

- B) 90 sm

- *C) 100 sm

- D) 110 sm

25. Hakamning asosiy vazifasi nimadan iborat?

- *A) O'yin qoidasiga to'liq rioya qiladi

- B) Golni inobatga oladi

- C) O'yinchilarni ikki guruhga bo'ladi

- D) Jarima to'pini belgilaydi

26. Bo'limlarni davomiyligi necha daqiqadan iborat bo'ladi?

- A) 15 daqiqa

- B) 20 daqiqa

- C) 25 daqiqa

- *D) 30 daqiqa

27. Chetlashtirilgan o'yinchi zahira o'rindig'iga o'tirishi mumkinmi?

- A) Ha

- B) Murabbiyning ruxsati bilan

- *C) Faqatgina kiyinish xonasiga ketishi shart

- D) Xohlagan joyga o'tirishi mumkin

17. Darvozabon jarima maydoni necha metrlik chiziq bilan chiziladi?

- A) 3 metr
- B) 4 metr
- C) 5 metr
- *D) 6 metr

18. Yon chiziqdan to'pni to'g'ri darvozaga kiritisa gol hisobga olinadimi?

- A) Agar to'p hech kimga tegmasa
- *B) Agar to'p raqiblarga tegsa
- C) Hisobga olinadi
- D) To'g'ri darvozaga tepish mumkin emas.

19. Xalqaro uchrashuvlar uchun maydon o'lchami?

- *A) 38 - 42, 18 - 22
- B) 38 - 42, 20 - 18
- C) 36 - 44, 18 - 22
- D) 40 - 20, 30 - 15

20. Kichik futbol bo'limlari orasidagi tanaffus necha daqiqa bo'ladi?

- A) 8 daqiqa
- *B) 10 daqiqa
- C) 12 daqiqa
- D) 15 daqiqa

21. Maydon markazidagi aylananing raidusi necha metr?

- A) 1 metr
- B) 2 metr
- *C) 1,5 metr
- D) 2,5 metr

22. Zahira chegarasining umumiy uzunligini toping.

- A) 4 metr
- B) 5 metr

Darvozabon faqatgina hakamning ruxsati bilan, to'p o'yindan chiqqandan so'ng maydon o'yinchilari bilan almashishi mumkin.

O'yinchilarning zahira o'yinchilari bilan almashinishi jarayonida o'yin qoidasi buzilsa, hakam uchrashuvni to'xtatadi. Agar to'p raqiblarda bo'lsa hakam o'yinga kirayotgan o'yinchini ogohlantiradi, chiqayotgan o'yinchi maydondan chiqarilib o'yin to'xtatilgan joyidan erkin zarba belgilaydi.

Zahiradagi o'yinchi maydondagi o'yinchi bilan almashayotganda o'yin qoidasini buzsa, ya'ni almashish zonasidan o'tmaganda, hakam o'yinni to'xtatmaydi, ammo to'p o'yindan chiqqandan so'ng qoida buzgan o'yinchiga ogohlantirish beradi.

Kichik futbol musobaqalarida maydon o'yinchilari, darvozabonlar, futbol maydonidagi harakatlanayotgan boshqa o'yinchilarga jiddiy xavf tug'diradigan predmetlar bilan maydonga tushishi ta'qiqlanadi.

O'yinchilarning libosi futbolka, trusik, getra va oyoq kiyimdan iborat. Kichik futbolda ham katta futboldagi kabi oyoq kiyimsiz o'ynashga ruxsat etilmaydi.

O'yinchilarning futbolklarida FIFA tomonidan qabul qilingan rasmiy qoidalarga mos o'lchamda raqamlar bo'lishi shart, shuningdek, bitta jamoada 2 ta bir xil raqam bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Darvozabonlarga uzun trusik kiyishga ruxsat etiladi. Ularning libosi maydon o'yinchilar va hakamlarning libosidan tubdan farq qilishi qat'iy talab qilinadi.

Kiyinishda yo'l qo'yilgan xatoliklar uchun hakam o'yinchini o'yindan chetlashtirishi va u o'zini tartibga keltirguniga qadar o'yinga kiritmay turadi, bu esa to'p o'yindan chiqqan paytda amalga oshiriladi.

Har bir kichik futbol o'yini musobaqasini o'tkazish uchun federatsiyalar tomonidan sertifikatga ega hakamlar brigadasi belgilanadi.

Milliy terma jamoalar ishtirok etadigan musobaqalar quyidagilardan iborat:

- Jahon chempionati;
- Yevropa chempionati;
- Yoshlar o'rtasida Yevropa chempionati;
- Janubiy Amerika chempionati;
- Afrika chempionati;
- Okeaniya chempionati musobaqalari;
- Osiyo chempionati.

Klublar ishtirok etadigan musobaqalar quyidagilardan iborat:

- Kubok UYEFA;
- Yevropa chempionlari turniri (2001 - yildan)
- Janubiy Amerika klublari chempionati;
- Qit'alararo kubok;
- Recopa Cup.

Rasmiy sayt "Assosiatsii mini – futbola Rossii"

Futsal Planet (ang)

Yangi sayt "Mini – futbol Rossii"

AMFR sayti. Mini – futbol qoidalari

FIFA sayti. Mini – futbol qoidalari.

*C) Cheklanmagan

D) 5 marta

12. Kichik futbolda jarima to'pi necha metr uzoqlikdan bajariladi?

*A) 6 metr

B) 7 metr

C) 8 metr

D) 9 metr

13. Kichik futbol o'yinini maydonda nechta hakam boshqaradi?

A) 1 ta

*B) 2 ta

C) 3 ta

D) 4 ta

14. Kichik futbol o'yini necha bo'limdan iborat?

A) 1 bo'lim

*B) 2 bo'lim

C) 3 bo'lim

D) 4 bo'lim

15. To'pni o'yinga kiritish uchun necha soniya vaqt beriladi?

A) 2 sekund

*B) 4 sekund

C) 3 sekund

D) 5 sekund

16 Jarima to'pini tepganda raqib o'yinchisi necha metr uzoqda turadi?

A) 2 metr

B) 3 metr

C) 4 metr

*D) 5 metr

6. Maydon chiziqlari necha santimetr qalinlikda chiziladi?

- A) 5 sm
- B) 6 sm
- *C) 8 sm
- D) 7 sm

7. Kichik futbol to'pining aylanasi necha santimetr?

- A) 60 - 64 sm
- *B) 62 - 66 sm
- C) 64 - 68 sm
- D) 66 - 70 sm

8. Kichik futbol to'pini og'irligi necha grammni tashkil qiladi?

- *A) 340 - 390 gr
- B) 350 - 400 gr
- C) 330 - 380 gr
- D) 340 - 380 gr

9. Kichik futbol o'yinida maydonda necha o'yinchi o'ynaydi?

- A) 6 kishi
- *B) 5 kishi
- C) 4 kishi
- D) 7 kishi

10. I jahon chempionati qaysi davlatga o'tkazilgan?


- A) Germaniya
- B) Fransiya
- *C) Gollandiya
- D) Angliya

11. Kichik futbolda necha marta o'yinchi almashtirish mumkin?

- A) 3 marta
- B) 4 marta

I. O'yin uchun ajratilgan maydon o'lchamlari

Kichik futbol o'yinini o'tkazish uchun mo'ljallangan maydon (1-rasm) quyidagicha bo'lishi talab etiladi:



Rasm - 1

I.1. Kichik futbol maydoni o'lchami

O'yin uchun mo'ljallangan maydon to'g'ri chiziqdan iborat bo'lib, uning bo'yi 25 - 42 m va eni 15 - 25 m bo'ladi. Barcha holatlarda maydonning bo'yi enidan uzun bo'ladi.

Tushuntirish

Xalqaro uchrashuvlar uchun maydon o'lchami uzunligi 38 - 42 m, eni 18 - 22 m bo'ladi.

I.2. Kichik futbol maydonidagi chiziqlar

Maydon yaxshi ko'rinadigan chiziqlar bilan chizilib, chiziqlar eni 8 sm bo'ladi. Uzun chiziqlar, yon chiziqlar, qisqa chiziq, darvoza chizig'i deb yuritiladi. Shuningdek, maydon markazidan o'tkazilgan parallel chiziq o'rta chiziq deb yuritilib uning o'rtasiga maydon markazini belgilovchi belgi sifatida nuqta qo'yiladi. Maydon markazidan radiusi 3 metr aylana chiziladi.

I.3. Jarima maydoni

Maydonni har ikki qismida, darvoza ustunlarining ikki tomonidan maydon ichiga to'g'ri oxiri burilgan 6 metrli chiziq chizilib ular birlashtiriladi. To'g'ri va oxiri burilgan chiziqning yuqori qismi darvoza ustunlari bilan parallel ravishda 3 metrli to'g'ri chiziq bilan birlashtiriladi. Aylana va to'g'ri chiziqlardan paydo bo'lgan har bir geometrik shakl jarima maydoni deb yuritiladi.

Tushuntirish

Kichik futbolda darvoza chizig'i 15 - 16 metrga teng bo'lganda jarima maydonini yuqori qismidagi darvoza chizig'iga parallel chiziq 4 metrgacha qisqartiriladi.

KICHIK FUTBOLGA DOIR TEST SAVOLLARI:

1. Kichik futbol o'yinini o'tkazish uchun mo'ljallangan maydoni uzunligi necha metr bo'ladi?

- A) 20 - 50 metr
- B) 20-45 metr
- *C) 25 - 42 metr
- D) 25-40 metr

2. Kichik futbol o'yinini o'tkazish uchun mo'ljallangan maydon enligi necha metr bo'ladi?

- A) 14 - 20 metr
- *B) 15-25 metr
- C) 15 - 30 metr
- D) 15-20 metr

3. Kichik futbol darvozasining balandligi necha metr bo'ladi?

- *A) 2 metr
- B) 2,5 metr
- C) 3 metr
- D) 1,5 metr

4. Kichik futbol darvozasining eni necha metr bo'ladi?

- A) 2 metr
- B) 2,5 metr
- C) 2,7 metr
- *D) 3 metr

5. Kichik futbol darvozasi ustunlarining diametri necha santimetrni tashkil qiladi?

- A) 6 x 6 sm
- B) 6 x 7 sm
- C) 7 x 7 sm
- *D) 8 x 8 sm

ye) 6 metrlik qo'shimcha zarbalar zahira o'yinchilari tomonidan amalga oshiriladi. Zahira o'yinchilarining barchasi qo'shimcha zarbalarni amalga oshirgach, zarba berish navbati dastlabki o'yinchilar tomonidan oldin qanday beshtadan zarbani bajargan bo'lsa yana shunday davom ettiriladi.

j) har bir o'yinchi hakamning ruxsati bilan o'z o'rnini xohlagan paytda darvozabon bilan almashishi mumkin.

z) 6 metrli zarba bajarilayotganda ikkala jamoaning barcha o'yinchilari maydonning ikkinchi yarmida bo'lishi shart. Chiziq hakami bu maydon qismini kuzatib, zarbani amalga oshiruvchi o'yinchilarni nazorat qiladi.

I.4. 6 metrli belgi

Kichik futbolda jarima maydonini aylana bo'lib to'g'ri chiziq bilan birlashgan joyi o'rtasidan 6 metrli nuqta belgilanadi. U 6 metrli belgi deb yuritilib, undan futbolchilar 6 metrlik zarbani bajarishda foydalaniladi.

I.5. O'yinchilarni almashtirish joyi

Zahira o'yinchilari joylashgan o'rindiq tomondagi bo'ylama chiziqdan, maydon markazidan o'tgan o'rta chiziqning ikki tomonidan ham 3 metrli perpendikulyar ravishda uzunligi 80 sm chiziq chiziladi. Ushbu chiziqning 40 sm maydon ichida bo'lsa, 40 sm maydon tashqarisida bo'ladi. Maydonga kiruvchi va undan chiquvchi barcha o'yinchilar yon chiziqdagi ana shu 80 sm belgi orasidan kirib chiqishlari shart.


I.6. Darvoza

Maydonning ikki tomonidagi darvoza chiziqlarining qoq markazidan darvoza o'rnatiladi (2 - rasm).

Darvoza orasi 3 metrdan iborat ustundan tashkil topgan bo'ladi (ikki ustun orasi 3 metr). Ushbu ustunlar usti yotiq to'sinlar bilan birlashtirilib, uning yerdan balandligi 2 metrni tashkil qiladi.

Darvozalari 8 sm dan kvadrat (to'rt burchak) shaklda bo'ladi. Barcha ustunlar va to'sinlar o'lchami bir xil bo'lishi shart. Darvoza ustuni va to'sini orqa tomonidan to'r joylashtiriladi. Uning yuqori va pastki qismlari kronshteyn yoki ilgaklar bilan mahkamlanadi.

Izoh: To'r penka, djut yoki neylondan tayyorlangan bo'lib har qanday holatda ham uning qalinligi va hokazolar bir xil bo'lishi kerak.



Rasm 2

I.7. Maydonning yuza qismi qoplamasi

Maydonning yuza qismi tekis, silliq o'yinchilar yiqilganda xavfsiz bo'lishi lozim. Qoplama sifatida taxta yoki sun'iy materialdan foydalanish mumkin. Asfalt yoki betondan maydon qoplama sifatida foydalanish yaramaydi.

Tushuntirish

Maydon qoplamasi sifatida tabiiy maysa, sun'iy qoplama yoki toza tuproqdan foydalanish mumkin.

Shunday so'ng raqib jamoa o'yinchilari tomonidan bajariladigan erkin to'p tepishni belgilaydi.

Erkin to'p tepish orqali to'pni o'yinga kiritish o'yin qoidasi buzilgan joydan amalga oshiriladi.

c) agar burchak to'pini tepish huquqi belgilangandan keyin, o'yinchi qariyb 4 soniya arafasida uni amalga oshir-masa, hakam burchak to'pini tepish joyidan qarama – qarshi jamoa o'yinchilariga erkin to'p tepish huquqini beradi.

Durang hisobi qayd qilingan hollarda g'olibni aniqlash uchun 6 metrlik zarbani amalga oshirish tartibi

Uchrashuvning natijasi durang bilan tugab g'olibni aniqlash zarurati tug'ulgan paytda quyidagi shartlarga asosan 6 metrlik zarba berish navbat bilan amalga oshiriladi:

a) hakam dastlab 6 metrlik nuqtadan barcha zarbalar bajariladigan darvozani aniqlab oladi;

b) hakam dastlab birinchi bo'lib zarbani amalga oshiradigan jamoani qur'a tashlash yo'li bilan aniqlab oladi;

c) har bir jamoa o'yinchilari navbat bilan beshtadan zarbani amalga oshiradilar. 6 metrlik zarbani bajaruvchi o'yinchilar hakam uchrashuvni tugaganligini bildiruvchi xushtakni chalgunga qadar maydonda harakatlangan o'yinchilardan iborat bo'ladi. Ayrim hollarda, agar uchrashuv tugagan mahal jamoalardan biror - birida o'yin davomida chetlash-tirishlar oqibatida besh o'yinchidan kam futbolchi qolsa, zarba bajaruvchilar sonini beshtaga yetkazish maqsadida zahira o'yinchilari bilan to'ldiriladi;

d) agar jamoalar beshtadan zarbani bajargach bir xil natijani qayd etsalar, yoki bironta ham gol kiritolmasalar, 6 metrlik zarbani bajarish takrorlanib jamoalar tomonidan amalga oshirilgan qo'shimcha zarbalar soni albatta bir xil bo'lib (beshtagacha bo'lishi shart emas), bir to'p farqi bilan g'olib aniqlangunga qadar davom etadi.



Qarama - qarshi jamoa o'yinchilari burchak to'pi amalga oshirilayotgan mahal, to'p o'yinga kiritilmagan paytda, to'p o'zining aylanasi butunlay aylanmaganda to'pdan qariyb 5 metr uzoqlikda bo'lishlari talab qilinadi. Burchak to'pini tepib o'yinga kiritgan o'yinchining boshqa biror - bir o'yinchi to'pga tegmay turib yana takroran o'zining to'pga tegishi (o'yin qoidasini buzilishiga olib keladi) mumkin emas.

Burchak to'pini amalga oshirishdan so'ng to'g'ridan - to'g'ri darvozaga tepib kiritilgan to'p, darvozaga kiritilgan (gol) hisoblanadi.

Jazolash:

a) agar burchak to'pini o'yinga kiritishda xatoga yo'l qo'yilsa, burchak to'pini tepish takroran bajartiriladi;

b) agar burchak to'pini tepib o'yinga kiritgan o'yinchi boshqa biror – bir o'yinchi to'pga tegmay turib yana takroran tegsa, o'yin hakami darhol o'yinni to'xtatadi.

II. Kichik futbol to'pi

To'p aylana shaklda bo'ladi. U charm yoki uni o'rnini bosuvchi materialdan tayyorlanadi. O'yinchilar uchun xavf to'g'diradigan materialdan to'p tayyorlashda foydalanilmaydi.

To'pning aylanasi 62-66 sm. O'yin oldidan to'pning og'irligi 340- 390 gr bo'lishi kerak (bu FIFA ning to'pga bog'liq nomenklaturasiga № 4 qoidasiga mos keladi). O'yin davomida to'p hakamning ruxsatiga ko'ra almashtirilishi mumkin.



Tushuntirish

FIFA nomenklaturasidagi № 5 qoidaga ko'ra undanda og'irroq to'pdan foydalanish mumkin, faqatgina xalqaro uchrashuvlardan tashqari.

III. Kichik futboldagi o'yinchilar soni

1. O'yinda ikki jamoa uchrashib, maydonda besh o'yinchi va bir darvozabon harakat qiladi.

Tushuntirish

Qoida bo'yicha eng kami besh kishi bo'lganda ham jamoaga o'yinga tushishga ruxsat beriladi, undan kam holatlarda esa ruxsat etilmaydi.

2. Xalqaro uchrashuvlar, milliy chempionatlarda uning saviyasiga, darajasiga qaramay o'yinchilar almashtirishga ruxsat etiladi.

Tushuntirish

Agar biror jamoadan o'yinchilar maydondan chetlash-tirilib ikki o'yinchidan kam o'yinchi qolsa, o'yin darhol to'xtatiladi.

3. Butun o'yin davomida har bir jamoaning zahiradagi maksimal o'yinchilari soni 6 kishidan iborat bo'ladi.

4. O'yin jarayonida (to'xtamagan vaqtda ham) o'yinchilarni almashtirish cheklanmagan. Faqat darvozabon to'p maydonni tark etganda almashtiriladi. Maydonda zahiraga chiqqan o'yinchilar darhol zahira o'yinchilariga aylanadilar. U yana sheriklaridan birining o'rniga maydonga tushishi mumkin.

5. O'yin jarayonidagi, ya'ni o'yin to'xtatilmagan paytdagi o'yinchilarni almashinuvi quyidagi shartlarga amal qilinib bajariladi:

a) maydonni tark etuvchi o'yinchi (ya'ni almashtirilayotgan zahira o'yinchisi) yon chiziqdagi o'yinchilar almash-tiriladigan joyidan maydonni tark etishi shart;

b) maydonga kiruvchi o'yinchiga o'yinga kirishi uchun o'yinchilarni almashtirish joyidan, faqatgina maydondagi o'yinchi maydonni tark etgach ruxsat beriladi;

3) agar darvozabon to'pni o'yinga kiritishni bajargach to'pga biror – bir (har qanday) boshqa o'yinchidan oldin yana o'zi takror tegadigan bo'lsa, hakam darhol o'yinni to'xtatib, o'yin qoida buzilgan joydan raqib jamoalari foydasiga erkin to'p tepishni bajarishni belgilaydi;

4) agar darvozabon tomonidan to'pni o'yinga kiritish amalga oshirilgach:

- o'yinga kiritilgan to'p maydonning yarmini kesib o'tmasa;

- raqib jamoasi o'yinchilaridan hech biri ushbu to'pga tegmasa;

- to'p jamoadoshi tomonidan yana darvozabonga qaytarilsa;

- qaytarilgan to'pni darvozabon qo'li bilan ushlasa hakam o'yinni to'xtatib, raqib jamoasi foydasiga erkin to'p tepishni belgilaydi.

Raqib jamoasi o'yinchilari erkin to'p tepishni o'yin qoidasi buzilgan joyga yaqin bo'lgan 6 metrlik jarima maydoni chegarasidan amalga oshiradi.

XVI. Burchak to'pi

Agar to'p darvoza chizig'ini ikkala ustunining tashqi tomonidan maydon uzra dumalab yoki havoda kesib o'tsa, shuningdek, darvoza to'sini tepasidan o'tsa, bunda himoyalovchi jamoa o'yinchisi to'pga oxirgi bo'lib tegsa, hakam tomonidan to'pni burchakdan o'yinga kiritish belgilanadi.

Burchak to'pi darvoza chizig'i bilan yon chiziq kesishgan joyga o'rnatilgan harakatda bo'lmagan (qotib turgan) to'pga oyoq bilan zarba berish orqali amalga oshiriladi.



O'z jarima maydonida turgan darvozabon to'pni qo'liga olib, uni jarima maydonidan tashqariga, maydonni o'rta chizig'idan o'tkazmay o'yinga kiritadi. Qachonki to'p jarima maydonini tark etsa o'yinga kiritilgan hisoblanadi.

Agar ikkala jamoa o'yinchilaridan biror – bir o'yinchi to'pga tegsa, yoki to'pni o'yinga kiritgan jamoa maydoni sathiga tegsa to'pni o'yinga kiritish bajarilgan hisoblanadi.

Jazolash:

1) agar to'p o'yinga kiritilganda jamoaga tegishli maydon yarmidan o'chib o'tib, raqiblarning yarim maydoniga tushsa, unda o'yinchilardan hech biri to'pga tegmagan bo'lsa, shuningdek, to'p o'z yarim maydoni sathiga tegmasa, hakam o'yinni to'xtatib erkin to'p tepishni belgilaydi. Erkin to'p tepish raqib jamoa o'yinchilari tomonidan o'rta chiziqqa yaqin joydan amalga oshiriladi;

2) to'pni darvozabon tomonidan o'yinga kiritish quyidagi hollarda: agar to'p jarima maydonini tark etmay turib unga biror - bir o'yinchi tegsa, masalan, o'z jamoadoshi, yoki raqib jamoasi o'yinchisi takroran bajartiriladi;

c) zahiradagi o'yinchi qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar, ya'ni u, maydonda harakatlanmayotganligidan qat'iy, o'zining xatti - harakatlari uchun maydondagi o'yinchi kabi jazolanadi;

d) zahiradan o'yinchi maydonga tushgandan so'ng, hakam tomonidan o'yinchi almashtirilganligi tugadi deb hisoblanadi. Shu fursatdan boshlab, endi u asosiy tarkib o'yinchisiga aylanadi. Zahiraga chiqqan o'yinchi esa zahira o'yinchisiga aylanadi.

6. Darvozabon to'p maydonni tark etgandan so'ng, hakamning ruxsati bilan o'z jamaosidagi xohlagan o'yinchisi bilan joyini almashtirishi mumkin.

Jazolash:

a) 6 p. III qoida buzilganda o'yin to'xtatilmaydi. Ushbu qoidani buzgan o'yinchi to'p maydonni tark etgach ogohlantiriladi;

b) agar o'yin jarayonida o'yinchi almashtirish paytida maydondagi o'yinchi maydonni tark etmay boshqa o'yinga kiruvchi o'yinchi maydonga tushib ketsa hakam darhol o'yinni to'xtatishi lozim. Hakam zahiradan maydonga tushgan o'yinchini o'yindan chetlashtirib, maydonni tark etishi lozim bo'lgan o'yinchiga ogohlantirish beradi va shundan so'ng o'yin to'xtatilgan paytda to'p qayerda bo'lgan bo'lsa o'sha joydan raqib o'yinchilari tomonidan erkin to'p tepish bilan to'pni o'yinga kiritishga ruxsat beradi. Aksincha, ayni vaqtda to'p qoida buzuvchi jamoa jarima maydoni chegarasida bo'lgan bo'lsa, erkin to'p tepish jarima maydonining 6 metrli chegarasining to'p joylashgan nuqtasidan o'yinga kiritiladi;

c) agar o'yinchini almashtirishda o'yinga kiruvchi yoki o'yindan chiquvchi o'yinchilarini almashtirish ajratilgan zonadan emas, balki boshqa joydan amalga oshirilsa hakam o'yinni to'xtatmaydi. Shunga qaramay to'p o'yindan chiqqan zahoti hakam o'yin qoidasini buzgan jamoa o'yinchilarini ogohlantiradi.

IV. O'yinchilar formasi

1. O'yinchida boshqa o'yinchilarga xavf tug'diradigan hech bir narsa bo'lmasligi kerak.

2. O'yinchilar kiyimi futbolka, trusik, getra va oyoq kiyimdan iborat. Yuqori qismi charm yoki matodan bo'lgan, pastki qismi rezinadan bo'lgan mashg'ulot uchun mo'ljallangan oyoq kiyimlaridan ham foydalansa bo'ladi.

3. O'yinchilar futbolkasida raqam ko'rsatilgan bo'lib, bir jamoada ikkita bir xil raqam bo'lmasligi kerak.

4. Darvozabon uzun trusiklarda o'ynashi mumkin. Darvozabonlar kiyimining rangi maydondagi boshqa o'yinchilar va hakamlar kiyimining rangidan bo'lak bo'lishi kerak.

Jazolash:

IV punktning har qanday qoidasini buzgan o'yinchi o'zini tartibga keltirishga chaqiriladi. Hakam o'yinchi o'zining kiyim boshini tartibga keltirganiga ishonch hosil qilgach unga maydonga kirishga ruxsat beradi. Bu ishlar faqat to'p maydonni tark etgach amalga oshiriladi.

V. Hakam

Har qanday rasmiy uchrashuvlarni o'tkazish uchun hakamlar tayinlanadi.

Ularning huquqlari musobaqa joyiga yetib kelgach toki tugagunga qadar davom etadi.

O'yin davomida, shuningdek, o'yin turli sabablarga ko'ra to'xtatilgan vaqtda, to'p maydonni tark etganda, hakam yo'l qo'yilgan qoida buzarliliklarni, janjallarga sababchi bo'lgan o'yinchilarni jazolash maqsadida o'yinni yo'lga qo'yish uchun tanbeh, yoki zarur bo'lsa qattiq jazo beradi.

Barcha punktlar bo'yicha o'yinga oid hakamning qarori o'yin natijasiga ta'sir ko'rsatgani uchun qat'iy.

Maydonning yon chizig'idan to'pni tepib o'yinga kiritganda, to'pga to'g'ridan - to'g'ri zarba berish oqibatida darvozaga kiritilgan to'p gol hisoblanmaydi.

Jazolash:

a) agar yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritishda o'yin qoidasi buzilishiga yo'l qo'yilsa, to'pni o'yinga kiritish raqib jamoasi tomonidan qayta amalga oshiriladi;

b) agar yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish to'p maydonni kesib o'tgan joyidan amalga oshirilmasa, to'pni o'yinga kiritish to'p maydonni kesib o'tgan joyidan raqib jamoa o'yinchilari tomonidan amalga oshiriladi;

c) agar to'p 4 soniya ichida uni nazoratga olgan jamoa o'yinchisi tomonidan o'yinga kiritilmasa, endi yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritish huquqi raqib jamoasi o'yinchilari tomonidan amalga oshiriladi;

d) agar to'pni yon chiziqdan o'yinga kirituvchi o'yinchi, boshqa har qanday o'yinchi to'pga tegmay turib takror to'pga o'zi tegsa, hakam o'yinni to'xtatadi va o'yin qoidasi buzilgan joydan raqib o'yinchilari tomonidan erkin to'p tepishni belgilaydi. Agar yon chiziqdan to'pni o'yinga kiritishda o'yinchi to'pga ikkinchi bor takror tegishi har qanday jamoaning jarima maydoni ichida sodir bo'lsa, erkin to'p tepish o'yinchi to'pga tekkan joyiga yaqin joydan, 6 metrlik jarima maydoni chegarasi yaqinidan bajariladi.

XV. Darvozadan to'pni o'yinga kiritish

Agar to'p darvoza chizig'ini ikkala ustunining tashqi tomonidan maydon uzra dumalab yoki havoda kesib o'tsa, shuningdek, darvoza to'sini tepasidan o'tsa, bunda raqib o'yinchisi to'pga oxirgi bo'lib tegsa, hakam tomonidan to'pni darvozadan o'yinga kiritish belgilanadi.

XIV. Yon chiziqdan to'pni tepib o'yinga kiritish

Qachonki, to'p yon chiziqni maydon sathi uzra yoki uni havoda kesib o'tsa, to'pni maydonni tark etgan joyidan xohlagan tomonga unga oyoq bilan zarba berish orqali qayta o'yinga kiritish mumkin. To'pni maydonga qayta o'yinga kiritish, to'pni maydon yon chizig'ini kesib o'tishi oldidan unga oxirgi bo'lib tekkan o'yinchining raqibi tomonidan amalga oshiriladi.

To'pni o'yinga kiritish paytida, uni ijro etuvchi o'yinchining oyog'i maydon chizig'i ustida yoki maydon tashqarida bo'lishi lozim. To'p maydon chizig'i ustida harakatsiz turishi shart. Qachonki to'p o'z aylanasi to'liq aylanib o'tganidan so'ng o'yinga kiritilgan hisoblanadi. To'pni yon chiziqdan o'yinga kiritgan o'yinchini, to'pga boshqa o'yinchilardan birortasi tegmagunga qadar takror tegishi mumkin emas. To'pni o'yinga kiritish paytida qarama – qarshi jamoa o'yinchilari, to'pdan kamida 5 metr uzoq masofada bo'lishi talab qilinadi.



Hakam:

- a) o'yin qoidasiga qat'iy amal qilmog'i kerak;
- b) o'yinni to'xtatilishi aybdor jamoa foydasiga bo'lsa, hakam o'yinchilarni jazolash uchun uni to'xtatmasligi kerak;
- c) uchrashuvdan oldin, davomida va undan keyin sodir bo'lgan barcha to'qnashuv va tartib buzarlilklarni qayd qilishga majbur;

d) o'yin xronometrajini olib borib uni o'z vaqtida boshlab, davomiyligiga, tugashiga va yo'qotilgan vaqtni qo'shib berishni o'yin qoidasiga asoslanib ta'minlashga majbur;

ye) o'zining ichki his tuyg'ulariga qarab matchni har qanday qoida buzarliliklarida to'xtatishi mumkin. Shuningdek, lozim bo'lganda matchni vaqtinchalik yoki butunlay to'xtatib qo'yishi mumkin (qattiq jalada, kuchli shamolda, yer qimir-laganda yoki kun botib qolganda). Ayrim sabablarga ko'ra tomoshabinlar aralashganda; match to'xtatilgach hakam "Nizom" da ko'rsatilgan tartibda belgilangan muhlat ichida musobaqa o'tkazuvchi tashkilotga batafsil bildirgi berib, barcha holatlar haqida tushintirish beradi;

j) Maydonga chiqib o'yin qoidasini buzgani uchun, nojuya xatti – harakati uchun, sportchiga xos bo'lmagan xulqi uchun har qanday o'yinchini ogohlantirish huquqiga ega. O'yinchi ogohlantirilishiga qaramay tartib intizomsizlikka yo'l qo'yaversa uchrashuvda ishtirok etishdan chetlashtiradi. Bunday holatlarda aybdor o'yinchining ismi sharifi, qoidaga zid harakati uchrashuv qaydnomasida bayon qilinadi va musobaqa "Nizomi" da ko'rsatilgan muddatda musobaqa o'tkazuvchi tashkilotga yetkaziladi;

z) maydon o'yinchilari va yon hakamlardan tashqari hech kimga ruxsatsiz maydonga tushishga ruxsat bermasligi kerak;

i) agar uning nazarida o'yinchi jiddiy jarohat olgan bo'lsa, u o'yinni to'xtatib zudlik bilan uni maydondan olib

chiqilishini so'raydi va matchni davom ettiradi. O'yinchi yengil jarohatlandi deb hisoblaganda to'p maydonni tark etmaguncha o'yinni to'xtatmasligi lozim. O'yinchiga maydon-da yordam ko'rsatish lozim emas, agar u yon yoki darvoza chizig'iga qadar bora olish imkoniyatiga ega bo'lsa;

k) hakam o'zini qo'pol tutgan, o'yin qoidasini jiddiy buzgan, haqoratli so'zlarni ishlatgan har qanday o'yinchini chetlatishga majbur;

l) hakam to'xtatilgan o'yinni xushtak chalib boshlashi kerak;

m) II qoidaga ko'ra o'yin o'tkazish uchun to'pni mustaqil tanlash huquqiga ega.

VI. Qanot hakami

Uchrashuv hakamiga yordam berish uchun qanot hakami tayinlanadi. Ular maydonning qarama - qarshi tomonlarida turib harakatlanadilar va o'zlariga yuklatilgan vazifa bo'yicha qaror chiqarib bosh hakamga ishora beradi.

Bular quyidagicha: xalqaro matchlar faqat chiziq hakami yordamida o'tkaziladi.

a) qaysi jamoa burchak to'pini tepishini, darvozadan yoki yon chiziqdan to'pni tepishni;

b) o'yin davomida o'yinchilar almashinuvini qoidaga mosligini.

Shuning bilan birga u hakamga o'yinni o'tkazishda ko'maklashib, XI qoidaga binoan o'yinchi maydondan chetlashtirilganda 5 daqiqali jamoaning kamchilikda harakatlanishini ham kuzatadi. Agar chiziq hakami bevosita o'zining asoslanmagan harakatlari bilan o'yinga aralashaversa yoki o'zini yomon tutsa uchrashuv hakami uni yordamidan bosh tortib uni almashtirishi mumkin. Hakam keyinchalik bu voqea haqida musobaqa tashkilotchilariga xabar berishga majbur. Chiziq hakamida maydon egalari tomonidan taqdim etilgan (yoki o'ziniki) sariq, qizil yoki boshqa rangdagi ko'zga tashlanuvchi bo'yoq bo'ladi.

vaqtda bajarilsa, hakam xuddi ana shu joydan teskari tomonga to'pni o'yinga kiritish uchun raqib jamoaga to'pni olib beradi va ular erkin to'pni o'yinga kiritadi.

XIII. Olti metrlik zarba

6 metrlik zarba maydondagi 6 metrlik nuqtadan bajariladi. 6 metrlik zarbani bajarish paytida himoyalalanuvchi jamoa darvozaboni va zarba beruvchi o'yinchidan tashqari barcha o'yinchilar 6 metrlik nuqtadan 5 metr uzoqlikda turadilar. To'p o'yinga kiritilmaguncha darvozabon ustunlar orasidagi darvoza chizig'ida turadi va old, yon tomonlarga qadam tashlamaydi. 6 metrlik to'pga zarba beruvchi o'yinchi darvozaga tomon to'pga zarba beradi. Shundan so'ng u to'pga boshqa o'yinchilar tegmagunga qadar tega olmaydi. To'p o'z aylanasi bosib o'tgach o'yinga kiritilgan hisoblanadi. 6 metrdan darvozaga kiritilgan to'p o'z - o'zidan hisobga olinadi. O'yin vaqtida yoki birinchi, ikkinchi qismdan so'ng 6 metrlik zarba belgilanganda zarbadan so'ng to'p ustun yoki to'singa tegib darvozaga kirsas, boshqa hech bir qoida buzilishi bo'lmasa hisoblanadi.

Jazolash:

XIII qoida har qanday holatda buzilganda:

a) himoyalalanuvchi jamoa o'yinchisi ta'sirida to'p darvozaga kirmay qolsa, 6 metrlik zarba takrorlanadi;

b) 6 metrlik zarba beruvchi o'yinchi sherigi tomonidan to'p darvozaga kiritilsa, gol hisobga olinmaydi, ammo zarba takroriy bajariladi.

c) 6 metrlik zarbani bajaruvchi o'yinchi to'pni o'yinga kiritgach zarba natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar erkin to'p tepish belgilanadi va uni qarama - qarshi jamoa o'yinchilari bajaradilar.

hisoblanadi. Erkin to'pdan so'ng esa to'p o'yinchilardan birortasiga tekkandan so'ng darvozaga kiritilgan hisoblanadi.

Jarima to'pi yoki erkin to'p tepish chog'ida raqib jamoa o'yinchilarining barchasi, jarima to'pi bajarilgunga qadar to'pdan 5 metr oralqdagi uzoqlikda bo'lishi talab etiladi. To'p o'z aylanasi bo'yicha masofani bosib o'tgach o'yinga kiritilgan hisoblanadi.

Agar jarima to'pi yoki erkin to'pni tepishni bajarishdan oldin raqib o'yinchilaridan birortasi to'pga 5 metrdan yaqin kelsa, hakam reglamentdagi XII qoidaga ko'ra jarima to'pi yoki erkin to'p qoidasiga amal qiladi (zarbani qayta teptiradi).

Jarima yoki erkin to'p tepishda to'p harakatlanmayotgan bo'lishi kerak. Uni bajargan o'yinchi o'yinchilardan boshqa biriga to'p tegmaguncha ikkinchi bor tegishi mumkin emas.

Tushuntirish

Jarima to'pi va erkin to'pni ajratib olish uchun hakam jarima to'pidan farqli ularoq erkin to'p belgilanganda bir qo'lini boshi o'zra balandga ko'taradi va to'p o'yinga kiritilib o'yinchilardan birortasiga tegmaguncha, maydonni tark etmagunga qadar uni tushirmaydi.

Jazolash:

a) agar jarima to'pi yoki erkin to'p tepishni bajarayotgan o'yinchi to'pni o'yinga kiritgach to'p boshqa o'yinchilarga tegmay ikkinchi bor takror to'pga tegsa hakam o'yinni to'xtatishi va oxirgi marta o'yin qoidasi buzilgan joydan raqib jamoasi o'yinchilariga bajarish uchun erkin to'p belgilaydi. Agar to'pga o'yinchini takror tegishi jamoalardan qay birini jarima maydoni yaqinida sodir bo'lgan bo'lsa, erkin to'p tepish o'sha jamoani 6 metrli jarima maydoni atrofidan bajariladi;

b) agar jarima yoki erkin to'p tepish 4 soniyadan ortiq

Tushuntirish

Xalqaro uchrashuvlarda yoki ichki chempionatlarda musobaqa tashkilotchilari tomonidan 5 daqiqali maydondan chetlashtirigan jamoa o'yinchisini kamchilikda o'ynashini nazorat qilish uchun alohida hakam tayinlanadi.

VII. O'yinning davomiyligi

O'yin 25 daqiqali ikki qismdan iborat. Bunday holatlarda quyidagilarga amal qilinadi:

a) har bir qismda uchrashuv hakami nazarida raqib o'yinchilari taktik maqsadlarda o'yin vaqtini cho'zganda, jarohatlangan o'yinchilarni maydondan olib chiqib ketish uchun va kutilmagan vaziyatlarda yo'qotilgan vaqtni qo'shib beradi;

b) har bir qism oxirida agar zarurat tug'ulganda uni bajarish uchun 6 metrli jarima to'pini tepishga vaqt qo'shib beradi.

Kichik futbol o'yinlarining qismlar orasidagi tanaffus 10 daqiqadan oshmasligi kerak.

VIII. O'yinning boshlanishi

A) O'yin boshlanishi oldidan tomonlarni yoki boshlang'ich zarba berish huquqiga ega jamoani qur'a tashlash yo'li bilan aniqlab olinadi. Qur'a natijasiga ko'ra jamoalar tomonlarni tanlash va boshlag'ich to'pni o'yinga kiritish huquqiga ega bo'ladilar.

Hakam xushtagidan so'ng o'yinchilardan biri maydon markazidagi harakatda bo'lmagan to'pga oyoq bilan zarba berib o'yinni boshlaydi. Bunday holatda dastlab to'pni raqib maydoni tomon yo'naltirish talab etiladi. Bu vaqt ikki jamoaning o'yinchilari ham o'z maydonlarida bo'lishlari shart bo'lib, to'psiz jamoa o'yinchilari boshlang'ich to'p o'yinga

kiritilgunga qadar undan 3 metr uzoqlikda bo'lishi kerak. To'p o'z aylanasi uzunligidagi oraligni bosib o'tgach o'yinga kiritilgan hisoblanadi. Boshlang'ich to'pni tepib o'yinga kiritgan o'yinchi boshqa o'yinchi to'pga tegmasdan turib yana ikkinchi bor tegish huquqiga ega emas;

B) To'p darvozaga kiritilgach o'yin boshidagi kabi maydon markazidan to'pni o'tkazib yuborgan jamoa o'yinchilari tomonidan o'yinga kiritiladi;

C) Qismlar orasidagi tanaffusdan so'ng jamoalar joylarini almashtiradilar va birinchi qismda boshlang'ich to'pni o'yinga kiritmagan jamoa endi boshlang'ich to'pni o'yinga kiritadi.



Jazolash:

VII qoidaning a, b, c punktlarining qay biri buzilishidan qat'iy nazar boshlang'ich to'pni o'yinga kiritish takrorlanadi. Agar boshlang'ich to'pni o'yinga kiritgan o'yinchi boshqa o'yinchilardan oldin ikkinchi bor to'pga tegsa, hakam o'yinni to'xtatib to'pni raqibga olib berishi va o'yin qoidasi buzilgan

maydoni atrofida buzilsa "erkin to'p" 6 metrli jarima maydoni atrofidan o'yinga kiritiladi.

O'yinchi ogohlantirilishi kerak, agar u:

a) o'yin vaqtida sherigi maydonni tark etmay turib yoki maydonga ta'qiqlangan joydan kirganda;

b) o'yin qoidasini muntazam buzsa;

c) hakam qaroriga so'z yoki turli xatti – harakatlar bilan norozilik bildirib qo'shilmasligini namoyish etsa;

d) sportchiga mos bo'lmagan harakatlari uchun.

Ko'rsatib o'tilgan qoidalar buzilganda, agar xarakteri jihatdan qattiq jazolashni talab etmasa o'yinchi ogohlantirilmay "erkin to'p" tepilishi bilan jazolanadi. So'ngra raqib jamoasi to'pni qoida buzilgan joyidan o'yinga kiritadi. Agar qoida buzilishi aybdor jamoa jarima maydonida yuz bersa, u holda to'p 6 metrli jarima maydoni yaqinidan o'yinga kiritiladi.

O'yinchi maydondan chetlashtirilishi mumkin, agar hakam fikricha:

1) o'yin qoidasini jiddiy buzsa;

2) o'zini haddan ziyod yomon tutsa;

3) ogohlantirish olib, yana qoida buzarlilik qilib ikkinchi ogohlantirishni olsa.

Agar 3 - punkt, 4 - punkt qoidasi buzilganligi tufayli o'yinchini maydondan chetlashtirish uchun hakam o'yinni maxsus to'xtatsa, shundan so'ng hech bir ko'ngilsiz holat yuz bermasa, qoida buzilgan joydan jabrlanuvchi jamoa o'yinchilari "erkin to'p" tepib qoida buzilgan joydan, ya'ni raqib jarima maydonchasini 6 metrli nuqtasi chegarasidan to'pni o'yinga kiritadi.

XII. Jarima va erkin to'p

Jarima to'pini erkin to'pdan farqi shundaki, jarima zarbasidan aybdor jamoa darvozasiga kiritilgan to'p gol

etilmaydi. Shunga qaramay o'yinda 5 daqiqali maydondan chetlashtirish vaqti tugagach jamoa to'liq tartibda o'ynashi mumkin. 5 daqiqali maydondan chetlashtirish vaqtini nazorat qilish chiziqli hakamga, xalqaro rasmiy uchrashuvlarda esa alohida hakamga yuklatiladi. Raqib jamoa o'yinchisi to'pni o'yinga kiritgandan so'ng 5 daqiqali o'yin qoidasi boshlandi deb hisoblanadi. Uchrashuvda 5 daqiqa vaqt tugab bo'lgach zahiradagi o'yinchi chetlashtirilgan o'yinchining o'rniga maydonga tushish uchun hakamdan ruxsat so'raydi. Hakam to'p maydonni butunlay tark etgandan keyin jazolanigan jamoa o'yinchisini maydonga tushushiga ruxsat beradi.

Agar o'yinchi quyidagi to'rtta qoidani buzsa:

1) hakamning fikricha xavfli o'ynasa: masalan to'p darvozabon qo'lida bo'lganda unga oyoq bilan zarba bermoqchi bo'lsa;

2) to'psiz ataylab raqibini yopmoqchi bo'lsa, ya'ni raqib va to'p orasida harakat bajarsa, raqib yo'lida turib uni harakatsizlantirish maqsadida o'zini gavgasi bilan tussa;

3) darvozabon jarima maydonidan tashqarida bo'lganida uni yelkasi bilan yelkasini turtganda;

4) o'z jamoasi jarima maydoni atrofida darvozabon bilan o'ynaganda:

a) to'pni uloqtirganda to'p o'yinchilardan hech biriga tegmay, hamda maydon yuza qismiga tegmay qarama – qarshi jamoa maydoniga tushsa;

b) to'pni o'yinchiga qo'li bilan oshirgach, uni sherigidan yana qaytarib olib qo'li bilan ushlasa. Agar bu vaqtda to'p o'rta chiziqli kesib o'tmagan bo'lsa va unga raqib o'yinchilaridan hech biri tegmagan bo'lsa;

c) o'yin vaqtini chuzish uchun qo'llanilgan taktikada, u "erkin to'p" tepish bilan jazolanishi kerak. "Erkin to'p" raqib o'yinchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar yuqorida keltirilgan to'rtta o'yin qoidasidan biron-tasi himoyalannuvchi jamoa o'yinchilari tomonidan jarima

joydan erkin to'p tepib o'yinni boshlashga ruxsat berishi lozim. Agar o'yinchini ikkinchi bor to'pga tegishi qarama – qarshi jamoaning jarima maydonida ro'y bersa, erkin to'p tepish qoida buzilgan nuqtadan, 6 metrli jarima maydoni chegarasi yaqinidan bajariladi.

Boshlang'ich to'pni tepish orqali darvozaga kiritilgan to'p hisobga olinmaydi.

D) O'yin, qoidasida ko'zda tutilmagan ayrim sabablarga ko'ra vaqtinchalik to'xtatilsa, agar to'p yon chiziqli, darvoza chizig'ini kesib o'tmay maydonda qolgan bo'lsa o'yin to'xtaganda to'p qayerda bo'lgan bo'lsa o'sha yerdan baxsli to'p tashlash orqali o'yinga kiritiladi. To'p jarima maydonida bo'lgan bo'lsa 6 metrli jarima maydoni chegarasi yonidan "erkin to'p" tashlash yo'li bilan boshlanadi.

"Erkin to'p" ni o'yinga kiritishda hakam to'pni qo'liga olib pastga tashlab yuboradi. To'p pol sathiga tekkach o'yin boshlangan hisoblanadi. Agar to'p maydon poliga tegmay maydondan tashqariga tushsa hakam "erkin to'p" tashlashni takrorlaydi. To'p polga tegmasdan oldin hech bir o'yinchini unga tegishga haqqi yo'q. Bu qoida buzilganda "erkin to'p" tashlash takrorlanadi.

IX. To'p o'yinda va o'yindan tashqarida

To'p quyidagi hollarda o'yindan chiqqan hisoblanadi:

a) agar to'p yon chiziqli, darvoza chizig'ini pol sathidan yoki havoda kesib o'tsa;

b) hakam tomonidan o'yin to'xtatilganda.

O'yin boshidan toki oxirigacha bo'lgan boshqa vaqtlarda to'p o'yinda hisoblanadi. Budan tashqari quyidagi hollarda ham:

a) to'p ustun yoki to'sindan maydonga qaytganda;

b) maydon ichida hakam yoki uni yordamchisiga tegsa;

c) o'yin qoidasi buzilsada hakam uni to'xtatmaganda.

Tushuntirish

Kichik futbolda maydondagi chiziqlar o'sha zona yoki maydonchalar o'lchamiga kiradi. Shu jumladan, yon chiziqlar va darvoza chiziqlari maydon o'lchamiga mansubdir.

Agar uchrashuv usti yopiq binoda o'tkazilayotganda tasodifan tepilgan to'p shiftga tegsa o'yin to'xtatiladi va to'p shiftga tekkan joydan "erkin to'p" tashlash yo'li bilan o'ynay boshlanadi. Agar bu hol jarima maydoni ortida sodir bo'lsa, u holda "erkin to'p" tashlash 6 metrli nuqtadan boshlanadi.



X. O'yin natijasi

Agar to'p darvoza chizig'i ustun va to'sinlarini yerdan yoki havodan kesib o'tsa, uni raqibning biror o'yinchisi qo'li bilan urib kiritmasa darvozaga kiritilgan hisoblanadi.

Butun o'yin davomida eng ko'p to'p kiritgan jamoa g'olib hisoblanadi. Agar darvozaga birorta ham to'p kiritilmasa yoki jamoalar bir xil to'p kiritishsa o'yin durang bilan tugagan hisoblanadi.

XI. O'yinchini o'yin qoidasini buzushi va intizomsizligi

Agar o'yinchi quyidagi o'n bitta qoidani buzsa:

- a) oyog'i bilan raqibini tepsa yoki tepishga harakat qilsa;
- b) raqibini yiqitsa, oldidan yoki orqasidan chil berib yiqitishga urinsa;
- c) raqib ustiga sakrasa;
- d) raqibga qo'pol va xavfli tashlansa (hujum qilsa);
- ye) raqibi to'pni tusmaganda, ortidan yitarganda;
- j) raqibini qo'li bilan ursa yoki urishga urinsa, unga tuflasa;
- z) jismoniy kuch ishlatib raqibini ushlab qolsa;
- i) ta'qiqlangan usullar bilan raqibini yetarsa;
- k) yelkasi bilan raqibini yetarsa;
- l) to'pga tishish maqsadida raqib oyog'i tagiga tashlanganda, hatto raqibiga tegmasa ham;
- m) to'pga qo'lini tegizganda, to'pni qo'li bilan to'xtatganda, to'pni yetarib yoki qo'li bilan zarba berganda (o'z jamoasi jarima maydonchasidagi darvoza bonga buni dahli yo'q).

Bu hollarda aybdor jamoa jarima to'pi tepish bilan jazolanib, uni raqib o'yinchisi qoida buzilgan joydan amalga oshiradi.

Agar yuqorida sanab o'tilgan 11 ta qoida himoyaluvchi o'yinchilar tomonidan jarima maydonida atayin buzulsa, hujum qiluvchi jamoa 6 metrlik zarba berish huquqiga ega bo'ladi.

Tushuntirish

O'yindan chetlashtirilgan har qanday o'yinchi qaytib o'yinda ishtirok etishdan mahrum qilinadi. Hatto unga zahiradagi o'yinchilar o'rindig'iga o'tirish ham ruxsat